
Alimentni ixtiyoriy to'lamaslik oqibati

Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tumani bo'limi tomonidan muqaddam aliment pulini o'z vaqtida to'lamaganligi sababli ma'muriy qamoqqa olingan va jazodan o'zlariga to'g'ri xulosa chiqarmagan 7 nafar otalarga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atildi.

Xususan, fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining 2011 yil 8 iyuldagi buyrug'i bilan qarzdor S.Ahmadjonovdan undiruvchi Sh.Ahmadjonova foydasiga uch nafar voyaga yetmagan farzandlarining moddiy ta'minoti uchun har oylik ish haqqi va boshqa daromadlarining ikkidan bir qismi miqdorida aliment undirish belgilangan bo'lsada, mas'uliyatsiz "ota" 2018 yilning iyun oyidan 2019 yilning yanvar oyiga qadar 5 mln. 300 ming so'm miqdoridagi aliment pullarini to'lashdan bo'yin tovlab kelganligi sababli O'zbekiston Respublikasi MJtKning 47⁴-moddasiga asosan Ma'muriy ishlar bo'yicha Qo'shtepa tuman sudining 2019 yil 9 yanvardagi qaroriga bilan qarzdor S.Ahmadjonovga o'n besh sutka qamoq jazosi tayinlangan.

Biroq, buni qarangki, jazodan o'ziga to'g'ri xulosa chiqarmagan S.Ahmadjonov vijdonsizlarcha 2019 yilning dekabr oyiga qadar ham jami 9 mln. 602 ming so'mlik aliment qarzdorligini to'lashdan bo'yin tovlab kelgan.

Mazkur holat yuzasidan Byuroning Qo'shtepa tumani bo'limi tomonidan qarzdor S.Ahmadjonovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 122-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, hozirda surishtiruv harakatlari olib borilmoqda.

Shuningdek, 35 oy davomida 14 mln. 285 ming so'm miqdoridagi aliment pullarini to'lashdan bo'yin tovlab kelayotgan qarzdor I.Poshaxodjayevega nisbatan ham JKning 122-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, hozirda surishtiruv harakatlari olib borilmoqda.

Hayotjon SULAYMONOV,

Majburiy ijro byurosi Qo'shtepa tumani bo'limi boshlig'i

2020-01-09 14:02:07